

O'zbekiston olimlari chigitni bentonit bilan qobiqlab ekish usulini yo'lga qo'ydilar

Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi olimlari tomonidan ishlab chiqilgan chigitni bentonit gillari kukuni bilan qobiqlab ekish usuli O'zbekistonda birinchi marotaba amalga oshirilib, tijoratlashtirish yo'lga qo'yildi. Ilmiy ishlanmani joratlashtirish, qishloq xo'jaligiga joriy etish hamda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tashkil etilgan ko'rgazmalarda Fanlar akademiyasining Navoiy bo'limining ilmiy ishlanmalari mahalliy ishlab chiqaruvchilarga tanishtirilgan. Natijada "Azkamar" MChJ ushbu loyihaga qiziqish bildirib, litsenziya shartnomasi imzolandi. Shartnomada Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi mualliflik huquqi e'tiborga olinib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish natijasida olingan foydaning 20 foizi Fanlar akademiyasining Navoiy bo'limi hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

"Azkamar" MChJ korxonasi yiliga 50 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, hozirgi kunga qadar 500 tonna mahsulot ishlab chiqarilgan. Loyiha doirasida chigitni bentonit kukuni bilan kapsulalab ekish uchun Navoiy viloyatidagi Azkamar koni bentonit gillaridan foydalanildi. Viloyatlar kesimida chigitni kapsulalash 2019 yilning aprely oyida o'tkazildi. Chigitni bentonit kukuni bilan kapsulalash O'zbekistonda birinchi marotaba amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, bentonit dunyoning ko'plab mamlakatlarida, xususan, Chexiya, Slovakiya, Italiya, AQSh, Misr, Ukraina, Gruzija, Rossiya, Yaponiya va Xitoyda qo'llanilib, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini 20-32,6 foizga oshirishga muvaffaq bo'linmoqda. 40 tadan ortiq mikroelementlarni o'zida jamlagan bentonit tabiatda kimyoviy mineralogik jihatlari bilan farq qilgan holda uchraydi. Noan'anaviy agrorudalardan olingan mineral xom ashyo — bentonit turli darajada maydalanadi va chorva mollari hamda parranda ozuqalarining sifatini oshirish maqsadida qo'shib beriladi, shuningdek, qishloq xo'jalik ekinlarida mahalliy o'g'it sifatida ishlatiladi.

Bentonitning shimish xususiyati tuproqning suv-fizik va fizik-kimyoviy xossalariга yaxshi ta'sir qilishi, ularning tarkibida 20-60% va undan ko'p magniyli montmorillonit mineralining mavjudligidadir, shuning uchun o'zgaruvchan, bo'kuvchan va almashuvchan kation va anionlarning hajmi 100 gr tuproqda 23-150 mg/ekvni tashkil etadi. Qolaversa, bentonitlar o'simliklar uchun ozuqa manbai hisoblanadi, ularning tarkibida 0,3-4,7 % uglerod, 0,4-3,0 % kaliy, 0,3-1,0 % fosfor mavjuddir.

Bundan tashqari unda ko'plab mikroelementlar: mis, rux, bor, kobal't, molibden, marganets, oltingugurt mavjud. O'simlik ildizi tarqalgan tuproq qatlamidan bentonit harakatchan shakldagi ozuqa unsurlari va gumusni suv bilan yuvilib ketishidan saqlaydi hamda tuproqda uglerod, azot, fosfor va kaliy zaxirasini ko'paytiradi.

Noan'anaviy agroruda bentonit bilan kapsulalangan chigitlarni ekish g'o'za ko'chatlarining unib chiqishini 1-2 kunga jadallashtirib, salmog'ini 10-12% ko'paytirishi va hosildorlikning 2,2-2,7 5 s/gektar yuqori bo'lishiga sabab bo'lishi isbotlandi.